

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.K/T.19.01
RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XOLIKOV ABDUMALIK SAYDULLAYEVICH

**IKKILAMCHI XOM ASHYOLAR ASOSIDA TABIIY GAZNI
DESULFURIZATSIYALASH UCHUN ADSORBENTLAR OLIH
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Xolikov Abdumalik Saydullayevich

Ikkilamchi xom ashyolar asosida tabiiy gazni desulfurizatsiyalash uchun adsorbentlar olish texnologiyasini ishlab chiqish 3

Холиков Абдумалик Сайдуллаевич

Разработка технологии получения адсорбентов на основе вторичного сырья для десульфуризации природного газа 21

Kholikov Abdumalik Saydullayevich

Development of a technology for producing adsorbents based on secondary raw materials for natural gas desulfurization 39

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.K/T.19.01 RAQAMLI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XOLIKOV ABDUMALIK SAYDULLAYEVICH

**IKKILAMCHI XOM ASHYOLAR ASOSIDA TABIIY GAZNI
DESULFURIZATSIYALASH UCHUN ADSORBENTLAR OLISH
TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent -2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2026.3.PhD/T3574 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ionx.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.zionet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshmetov Rasulbek Jumyazovich
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Buxorov Shuxrat Bo'riyevich
texnika fanlari doktori, professor

Usmanov Rasul Muratbayevich
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qo'qon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.K/T.19.01 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning «25» avgust 2026 yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (+99871) 262-56-60; faks: (+99871) 262-79-90, e-mail: ionxanruz@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (+99871) 262-79-90).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «11» avgust kuni tarqatildi.
(2026 yil «11» avgustdagi № 12 reestr bayonnomasi)



A.B. Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik ilmiy
kengash raisi, k.f.d., prof.

B.Z. Adizov
Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik ilmiy
kengash kotibi, t.f.d., prof.

R.R. Maxkamov
Ilmiy daraja beruvchi
bir martalik ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, k.f.d., kat.i.x.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda tabiiy gazni qayta ishlash sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlash, ayniqsa uzoq yillardan buyon ekspluatatsiya qilinayotgan yirik gaz konlaridan olinayotgan tabiiy gaz tarkibidagi merkaptan va oltingugurtli birikmalarni samarali tozalash muammosini bartaraf etish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Gaz tarkibida oltingugurtli aralashmalarning yuqori miqdorda bo'lishi nafaqat uning iste'molchilar uchun sifatini pasaytiradi, balki transport jarayonida korroziya xavfini kuchaytirishi, qayta ishlash bosqichlarini murakkablashtirishi va atrof-muhitga zarar yetkazishi bilan tavsiflanadi. Bunday sharoitda tabiiy gazni tozalashning zarur samaradorligini ta'minlaydigan yuqori samarali katalizatorlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda ekologik va iqtisodiy talablarni inobatga olgan holda mahalliy xom ashyolardan olinadigan, iqtisodiy jihatdan samarali va turli xil jarayonlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan adsorbentlarni ishlab chiqarish bo'yicha keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada adsorbentlar ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratishda nafaqat atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, balki energiya va resurs sarfini kamaytiruvchi innovatsion yondashuvlarni joriy etish, shuningdek, ularning yuqori faolligi, uzoq xizmat muddati va qayta tiklanuvchanligini ta'minlash orqali mahsulot sifati va rentabelligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda mahalliy xom ashyolar va ishlab chiqarish chiqindilari asosida tabiiy gazlarni demerkaptanlash uchun samarali adsorbentlar olish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, foydalanilgan ZnO asosli katalizatorlardan ekstraksiyalash yo'li bilan qayta ZnO ajratib olish va uni H₂S adsorbiyalash jarayonlarida qayta qo'llash texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Yangi O'zbekistonni rivojlantirish Strategiyasining uchinchi yo'nalishida, "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish"¹ vazifalari belgilab berilgan bo'lib. Bu borada, mahalliy xom ashyo asosida yuqori samarali ZnO adsorbentlarini sintez qilish, ularning demerkaptanlash jarayonidagi faolligi, kolloid-kimyoviy xossalari chuqur o'rganish, shuningdek, xom ashyo tarkibi, sintez sharoitlari va yakuniy mahsulot xossalari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi» to'g'risidagi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 30 yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "Yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi» to'g'risidagi, 2024 yil 26 senyabrda PF-149-son "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida ochiqlikni ta'minlash hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni

tadbirlari” to’g’risidagi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiyaning tadqiqot mavzusi doirasida amalga oshirilgan ishlar ma’lum darajada muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo’nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublikada fan va texnologiyalar rivojlantirishning VII «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiya» ustuvor yo’nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o’rganilganlik darajasi. Dunyoda tabiiy gazlarni tozalash va xususan, demerkaptanlash adsorbentlarini sintez qilish hamda ulardan samarali foydalanish bo’yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xorijiy mamlakatlarda turli oksidli va aralash oksidli katalizatorlar, ularning gaz tarkibidagi merkaptan hamda H_2S ni adsorbiyalashdagi samaradorligi yuzasidan qator izlanishlar mavjud. Mazkur tadqiqot sohasi bo’yicha bir qator xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, jumladan: J.A. Pollard, A.G. Heggem, K.F. Gray, H.W. Percins, I.P. Weichert, E.G. Agabalyans, N.N. Kruglitskiy, S.A. Kapustin, N.D. Ryabov va P.P. Dmitriyevlarning ilmiy izlanishlari bag’ishlangan bo’lib, ularda katalizatorlarning tuzilishi, tarkibi va faoliyat muddati bilan ularning samaradorligi o’rtasidagi bog’liqlik chuqur tahlil qilingan.

Respublikamizda samarador adsorbentlar ishlab chiqish borasidagi ilmiy izlanishlar Axmedov K.S., Hamraev S.S., Agzamxodjaev A.A., Aminov S.N., Alimov A.A., Narmetova G.R., Abdurahimov S.A., Axmedov U.K., Xamidov B.N., Yusupov F.M., Eshmetov I.D., Salixanova D.S., Abdikamalova A.B., Jumayeva D.J., Adizov B.Z., Eshmetov R.J., va boshqa bir qancha yetuk olimlarimiz maktablari tamonidan olib borilgan.

Lekin, turli xil tashqi omillar, shuningdek ekologik xavfsiz va samarali tabiiy gazni tozalash xossasini namoyon etuvchi adsorbentlarni ishlab chiqarish muammolarini chuqur o’rganish va ushbu adsorbentlarni amaliyotga tadbiq etish bo’yicha tadqiqotlar yetarlicha rivojlanmagan. Shu sababli, ushbu mavzuni o’rganish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi va milliy fan taraqqiyoti uchun yangi yo’nalishlarni ochib beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog’liqligi. Dissertatsiya oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq Toshkent kimyo-texnologiya institutining «Ayrim O- va N-saqlovchi organik birikmalarni sintezlash uchun katalizatorlar tanlashning ilmiy asoslari» mavzusidagi fundamental loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi ikkilamchi xom ashyolar asosida tabiiy gazni desulfurlash uchun adsorbentlar olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

chiqindi holatidagi SRT-109 katalizatorining kimyoviy hamda elementar tarkibini o’rganish, uning tarkibidan ZnO ajratib olishning maqbul sharoitlarini (harorat, kislota konsentratsiyasi va ta’sirlashish davomiyligi) aniqlash;

qayta tiklangan ZnO namunalari strukturasini IQ – spektroskopiya, DTA, XRD,

SEM tahlillari asosida o'rganish;

qayta tiklangan ZnO namunalarida azotning adsorbsiya-desorbsiyasi jarayonlarini o'rganish, teksturaviy xususiyatlaridagi farqlarni aniqlash;

sintez qilingan ZnO da H₂S adsorbiyalash samaradorligini o'rganish;

ikkilamchi xom ashyolar asosida tabiiy gazni desulfurlash uchun adsorbentlar olish texnologiyasini ishlab chiqish va texnologiyaning samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ikkilamchi xom ashyolar va ular asosida olingan rux oksidi adsorbentlari olingan.

Tadqiqotning predmeti rux oksidi asosida olingan adsorbentlarning kolloid-kimyoviy, teksturaviy va adsorbsiya xossalarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarish davomida rux oksidi asosidagi adsorbentlarning fizik-kimyoviy (rentgenofluoressent, termik va elektron-mikroskopik, spektral tahlillar) hamda kolloid-kimyoviy (adsorbsiya) xususiyatlarini aniqlash uchun zamonaviy va an'anaviy usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ZnO asosidagi ikkilamchi xom ashyolarni kislotali ishlov berish jarayoni natijasida 94% gacha qayta tiklanish darajasiga erishilib, bu natija Zn²⁺ ioni migratsiyasi va gidroksokomplekslarning qayta kristallanishi mexanizmlari bilan bog'liqligi aniqlangan;

rentgenogrammalar tahlili natijasida qayta tiklangan ZnO namunalarida 20 = 31,7°, 34,4°, 36,2°, 47,5° da yuqori intensiv cho'qqilar qayd etilib, bu vyurtsit tuzilmasining to'liq tiklanganligini bilan asoslangan;

TEM mikrotasvirlari olingan namunalar yuzasida o'rtacha diametri 35–60 nm bo'lgan sferik zarrachalar bir tekis tarqalganligini, DTA tahlilidagi 420–460°C da asosiy endotermik cho'qqilar esa Zn-OH ko'rinishidagi bog'langan suv mavjudligi bilan bog'liqligi isbotlangan;

UCAT-SR-110 adsorbentini tabiiy gazni tozalash jarayonida qo'llash H₂S miqdorini 0,0021 % dan 0,000301 % gacha kamaytirishi, boshlang'ich konsentratsiya 0,0012 % bo'lganda esa uni to'liq bartaraf etib, bu regeneratsiya qilingan ZnO tarkibida gazni vodorod sulfiddan chuqur sorbsion tozalashni ta'minlovchi faol markazlar saqlanib qolishi bilan bog'likligi isbotlangan;

rux saqlovchi ikkilamchi xom ashyodan ZnO-adsorbent olishning texnologik sxemasi ishlab chiqilib, 1 t tayyor mahsulot olish uchun 1600 kg chiqindi, 300 kg HNO₃ va 2000 kg Na₂CO₃ talab etilib, mazkur xomashyoning adsorbentni sanoat miqyosida sintez qilish uchun yaroqliligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilar iborat:

ishlatilgan rux oksidini qayta ishlash asosida ZnO-adsorbent olish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

olingan ZnO-adsorbentlarning tabiiy gazni vodorod sulfidi va boshqa oltingugurtli birikmalardan tozalashda sanoat sharoitida qo'llangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari bo'yicha ilmiy xulosalar zamonaviy va an'anaviy fizik-kimyoviy hamda analitik usullar yordamida olingan ilmiy ma'lumotlar bilan tasdiqlangan, ilmiy yangiliklarning amaliy natijalari esa laboratoriya va Shurtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi, "Uzbekistan GTL"

MChJ kabi ishlab chiqarish korxonalari sharoitida o'tkazilgan sinov dalolatnomalari orqali tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlatilgan rux oksidi ikkilamchi xom ashyolari asosida kislotali qayta ishlash natijasida ZnO-adsorbentlar olish jarayonining asosiy qonuniyatlarini aniqlash, ularning tuzilishi, teksturaviy va adsorbsion xossalari o'rtasidagi bog'liqlikni belgilash, shuningdek tabiiy gazni oltingugurtli birikmalardan tozalash uchun samarali adsorbentlar yaratish jarayonini maqsadli ravishda amalga oshirishga asos bo'ladigan ilmiy qonuniyatlarni o'rnatish bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlatilgan rux oksidi katalinatorlarini qayta ishlash asosida tabiiy gazni vodorod sulfid va boshqa oltingugurtli birikmalardan tozalash uchun ZnO-adsorbentlar olish texnologiyasini ishlab chiqishda, shuningdek, kimyo va kimyoviy texnologiya sohasida magistrlar va bakalavrlarni tayyorlash uchun o'quv jarayonida qo'llanishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahalliy xom ashyolardan tabiiy gazlarni oltingugurtli birikmalardan tozalash adsorbentlarini ishlab chiqarish texnologiyasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ikkilamchi xomashyolardan tabiiy gazlarni oltingugurtli birikmalardan tozalash adsorbentlarini olish usuli «Uzbekistan GTL» MChJ ning «2025-2027 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan («Uzbekistan GTL» MChJ ning 2026 yil 20 fevraldagi 02-61-26-535/E-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, UCAT-SR-110 adsorbentidan foydalanib o'tkazilgan sinovlar asosida gaz tarkibidagi 0,0012% vodorod sulfid miqdorini to'liq tozlash imkonini bergan;

olingan rux oksidi asosidagi adsorbentlarni tabiiy gazlarni oltingugurtli birikmalardan tozalash jarayonlarida qo'llash usuli «Uzbekistan GTL» MChJ ning «2025-2027 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan («Uzbekistan GTL» MChJ ning 2026 yil 20 fevraldagi 02-61-26-535/E-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, UCAT-SR-110 adsorbentidan foydalanib o'tkazilgan sinovlar asosida gaz tarkibidagi vodorod sulfid miqdori 0,0021% dan 0,000301% gacha tushurish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalari bo'yicha 4 ta ilmiy maqola, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan chop etishga tavsiya etilgan jurnallarda 3 ta Respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 104 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida ishning dolzarbligi va o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari yoritilgan, ishning

O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot davomida erishilgan ilmiy va amaliy natijalar, sanoat sinovlari, e'lon qilingan ilmiy ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilmasi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning **“Adsorbentlarni qayta ishlashning zamonaviy usullari”** deb nomlangan birinchi bobida gaz tarkibidagi oltingugurt birikmalarini ajratib olish texnologiyalarining nazariy asoslari, ularni bartaraf etish yo'llari, zamonaviy katalitik tizimlar va adsorbentlar ishlab chiqishdagi ilmiy yondashuvlar keng tahlil qilingan.

Dunyo va mahalliy olimlarning tadqiqotlari asosida seolit, Al_2O_3 , TiO_2 , Fe_2O_3 , MnO_2 , CuO va ZnO asosidagi nanoadsorbentlarning tuzilishi, sintezi va adsorbsion xossalari tahlil qilinib, ularning ekologik va iqtisodiy afzalliklari ko'rsatib berilgan.

Shuningdek, metal oksidli adsorbentlarning gazlardan oltingugurtli aralashmalarni (H_2S , merkaptanlar) ajratib olishdagi mexanizmlari, sirt faol markazlarning roli va ularning katalitik qayta tiklanish jarayonlari ilmiy asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot obyektlari va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida ilmiy tadqiqot jarayonida tanlab olingan obyektlar, ularning kelib chiqishi hamda o'rganishda qo'llanilgan fizik-kimyoviy va kolloid-kimyoviy tahlil usullari bayon etilgan. Ushbu bobning asosiy maqsadi tadqiqot ishlarining metodologik asoslarini yoritish, qo'llanilgan usullarning ilmiy asoslanganligini ta'minlash va keyingi boblarda keltirilgan eksperimental natijalarning ishonchliligini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida UNICAT korxonasida uzoq muddat ekspluatatsiya qilingan va faolligi pasaygan SRT-109 markali rux oksidi asosidagi katalizatorlar hamda ularni qayta ishlash natijasida olingan rux oksidi adsorbent namunalari tanlab olindi. Mazkur katalizatorlar tabiiy gazni vodorod sulfid va merkaptan kabi oltingugurtli birikmalardan tozalash jarayonlarida qo'llanilgan bo'lib, ularning tarkibi va holati ilmiy tadqiqotlar uchun asos sifatida qabul qilindi.

Tadqiqot predmeti sifatida qayta tiklangan rux oksidi asosidagi adsorbentlarning fizik-kimyoviy xossalari, strukturaviy va morfologik tuzilishi, sirt yuzasining holati hamda kolloid-kimyoviy va adsorbsion xususiyatlari belgilandi. Tadqiqot davomida rux oksidi materiallarining tuzilishi va sirt faol markazlarini tavsiflashga alohida e'tibor qaratildi.

Namunalarning kimyoviy va strukturaviy xossalarini o'rganish uchun zamonaviy instrumental tahlil usullaridan foydalanildi. Infraqizil spektroskopiya yordamida adsorbent yuzasidagi funksional guruhlar va kimyoviy bog'lanishlar aniqlandi. Rentgenostruktura tahlili rux oksidi namunalarning fazaviy tarkibi va kristall tuzilishini baholash uchun qo'llanildi. Elektron mikroskopiya usullari yordamida zarrachalarning o'lchami, shakli va morfologik tuzilishi o'rganildi. Termik tahlil metodlari materiallarning termik barqarorligi va fazaviy o'zgarishlarini aniqlashda qo'llanildi.

Adsorbentlarning sirt va tekstura xossalarini aniqlash maqsadida azotning adsorbsion–desorbsion izotermalari olinib, Brunauer–Emmett–Teller usuli asosida nisbiy sirt maydoni, g'ovak hajmi va g'ovak diametrlari hisoblab chiqildi. Ushbu

o'lovlar maxsus avtomatlashtirilgan adsorbsion analizator yordamida amalga oshirildi.

Rux oksidi adsorbentlarining adsorbsion xossalarini o'rganish laboratoriya sharoitida model gaz aralashmalari ishtirokida olib borildi. Tajribalar davomida namunalarning yutilish qobiliyati, adsorbsion jarayon kinetikasi hamda qayta tiklanish imkoniyatlari baholandi. Shuningdek, granulalangan adsorbentlarning mexanik mustahkamligi va yeyilishga chidamliligi maxsus sinov uskunolari yordamida aniqlanib, ularning sanoat sharoitida qo'llanish imkoniyati metodik jihatdan asoslab berildi.

Umuman olganda, ikkinchi bobda bayon etilgan tadqiqot obyektlari va usullari dissertatsiyaning keyingi boblarida keltirilgan eksperimental natijalarni ilmiy jihatdan asoslash, ularning takrorlanuvchanligi va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Mahalliy chiqindi asosida adsorbentlar sintez qilish va ularning kolloid-kimyoviy xossalarini o'rganish”** deb nomlangan uchinchi bobda kislotali ishlov berish usuli bilan olingan ZnO adsorbentlarning tarkibi, tuzilishi va sirt xossalari tadqiq qilingan.

Foydalanilgan SRT-109 turidagi katalizatoridan rux oksidini ajratib olish maqsadida kislotali ishlov berish jarayoni qo'llanildi, HNO₃ ning konsentratsiyasi 10-40% oraliqda, 60-240 daqiqa oralig'ida, 65-105 °C haroratlarda jarayon amalga oshirildi.

1-jadval.

Foydalanilgan SRT – 109 adsorbentidan rux oksidli adsorbentining olishning sharoitlari

№	Harorat, °C	Kislota konsentratsiyasi, %	Vahti, daqiqa	Chiqish unumi, %
1	65	10	60	46.3
		20	120	60.4
		30	180	66.9
		40	240	67.2
2	75	10	60	55.7
		20	120	58.6
		30	180	68.7
		40	240	69.4
3	85	10	60	61.5
		20	120	64.4
		30	180	70.1
		40	240	70.5
4	95	10	60	66.9
		20	120	77.4
		30	180	92.2
		40	240	94.0
5	105	10	60	66.5
		20	120	75.9
		30	180	92.2
		40	240	93.3

Ushbu jarayonning mohiyati shundan iboratki, chiqindi tarkibidagi rux oksidi nitrat kislota eritmasida bosqichma-bosqich erib, eruvchan rux nitrat tuzlariga aylanadi. Bu davrda asosiy kimyoviy o'zgarish ZnO ning HNO₃ bilan o'zaro ta'sirga

kirishib, $\text{Zn}(\text{NO}_3)_2$ eritmasini hosil qilishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, harorat va kislotaning konsentratsiyasi ortishi natijasida reaksiyaning kinetik tezligi kuchayadi hamda qo'chimchalardan tozalanish darajasi ortadi.

Jarayon uchta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi. Avvalo, kislotaning qattiq fazaga diffuziyanishi sodir bo'ladi — HNO_3 eritmasi katalizator zarralari yuzasiga singadi va ZnO bilan ta'sirlashadi. Shu bosqichda kislota katalizator sirtiga kirib boradi va keyingi kimyoviy o'zgarishlar uchun sharoit yaratadi. Keyingi bosqichda kimyoviy o'zaro ta'sir yuz beradi: rux oksidi nitrat kislotada erib, rux nitrat ($\text{Zn}(\text{NO}_3)_2$) hosil qiladi. Bu jarayon davomida asosiy kimyoviy reaksiyalar amalga oshadi. So'nggi bosqichda eritmaning qattiq fazadan ajralishi ro'y beradi, ya'ni hosil bo'lgan rux nitrat eritmaga o'tadi, qattiq fazada esa katalizatorning boshqa komponentlari qoladi.

Jarayoni 65–105 °C harorat oralig'ida, 10–40% li nitrat kislotasi konsentratsiyalarida va 60–240 daqiqa davomida o'rganildi. Tajribaviy natijalar shuni ko'rsatdiki, harorat ortishi va vaqtning uzayishi bilan rux oksidining chiqish unumi asta-sekin ortib boradi. Xususan, 65 °C da unumi 67,2% dan ortmagan bo'lsa, 95 °C da 180 daqiqa davomida unum 92,2% gacha yetgan. Bu esa jarayon kinetikasi yuqori harorat va yetarli vaqt ta'sirida yanada samarali kechishini bildiradi.

Kislotaning konsentratsiyasi ham muhim omil hisoblanadi. Uning 10% dan 30–40% gacha ortishi eritish jarayonini faollashtiradi, biroq konsentratsiya ortishi 95 °C dan yuqori haroratlarda sezilarli farq bermagan.

Eritmadan ruxni ajratib olishning keyingi bosqichida Na_2CO_3 eritmasi qo'llanildi. Olingan $\text{Zn}(\text{NO}_3)_2$ to'g'ridan-to'g'ri qizdirish atrof muhit uchun toksiklikka ega azot oksidlarini hosil qilishini oldini olish maqsadida bu to'g'ri yechim sifatida tanlab olindi.


Bu bosqichda eritmadagi rux nitrat ioni Na_2CO_3 bilan reaksiyaga kirishib, rux karbonat hosil qiladi. ZnCO_3 cho'kmaga tushgach, u quritilib, termik parchalanish natijasida rux oksidi hoida olinadi. Natriy karbonat qo'llanilishi eritmadagi ruxni samarali tarzda cho'ktirib olish va uni sof oksid shaklida qayta tiklash imkonini beradi.

O'tkazilgan tajribalarga ko'ra, SRT-109 chiqindisidan rux oksidini ajratib olishning eng maqbul sharoitlari 95 °C harorat, 30% li nitrat kislotasi va 180 daqiqa ishlov berish davomiyligida kuzatildi. Ushbu sharoitda maksimal hosil bo'lish unumi 92.2% ni tashkil etdi.


Chiqindidan olingan rux oksidi adsorbentlarning IQ spektrlari tekshirilib, 400–4000 sm^{-1} oralig'idagi yutilish sohalarida o'rganildi (1-rasm).

Bizga ma'lumki IQ-spektrini ikki guruhga bo'lish mumkin: Birinchi, 400–1500 sm^{-1} oralig'i barmoq izlari sohasi deb ataladi va har bir moddaga xos bo'lgan tebranishlarni o'z ichiga oladi, ya'ni moddaning identifikatsiyasi uchun muhimdir, ikkinchi, 1500–4000 sm^{-1} oralig'i – funksional guruhlar sohasi bo'lib, bu yerda funksional guruhlar mavjudligi va ularning kimyoviy o'zgarishlari aks etadi.


SRT-109 namunasining IQ-spektrida 3449.84 sm^{-1} da keng cho'qqi kuzatilgan. Bu –OH guruhlarining mavjudligini bildiradi. Gidroksil guruhlar o'zaro vodorod bog'lari hosil qilgani sababli cho'qqi keng shaklda namoyon bo'ladi va molekulalararo vodorod bog'lanish mavjudligini ko'rsatadi. 2949.29 sm^{-1} da alifatik C–H valent tebranishlari, 2258.66–2368.76 sm^{-1} oralig'ida esa havodan adsorbsiyalangan CO_2 molekulalaridagi C=O bog'larining simmetrik va assimmetrik valent tebranishlari kuzatilgan.



a)



b)



c)

1-rasm. a) Import SRT-109, b) UCAT-SR-110 va c) UCAT-SR-120 namunalarning IQ-spektri.

1629.92 cm^{-1} da karbonat ionlari yoki karboksilat guruhlarining deformatsion tebranishlari aniqlangan. 1085.97–1026.17 cm^{-1} da Si–O–Si yoki C–O bog‘lanishlariga tegishli tebranishlar, 904.65–780.24 cm^{-1} da metall–O bog‘lanishlariga mos past energiyali tebranishlar qayd etilgan. 494.76–438.82 cm^{-1} da esa Zn–O bog‘lanishlariga tegishli cho‘qqilar mavjud bo‘lib, ZnO kristall panjarasidagi vyurtzit tuzilishiga xos tebranishlarni bildiradi.

UCAT-SR-110 va UCAT-SR-120 namunalari SRT-109 namunasi ishlatilgan variantlaridan kislotali ishlov berish orqali sintez qilingan. Ularning IQ-spektrlarida 3462.37 cm^{-1} da keng cho‘qqilar kuzatilgan bo‘lib, bu –OH guruhlarining mavjudligini bildiradi. Hidroksil guruhlar o‘zaro vodorod bog‘lari hosil qilgani sababli cho‘qqilar keng shaklda namoyon bo‘ladi va molekulararo vodorod bog‘lanish mavjudligini ko‘rsatadi.


Sintezlab olingan har ikkala namunaning IQ-spektrda 2362.6 cm^{-1} va 2370.62 cm^{-1} da cho‘qqilar aniqlangan bo‘lib, ular havodan adsorbsiyalangan CO_2 molekularidagi C=O bog‘larining valent tebranishlariga mos keladi. 1645.35 cm^{-1} da kuzatilgan cho‘qqilar karbonat ionlari yoki karboksilat guruhlarining deformatsion tebranishlariga to‘g‘ri keladi. Bu spektral belgilar karbonat guruhlarining yoki karboksilatlarining mavjudligini tasdiqlaydi va havodan adsorbsiyalangan CO_2 hisobiga yuzaga kelgan.

1124 cm^{-1} da aniqlangan cho‘qqilar Zn–O yoki Zn–O–Zn bog‘lanishlari tebranishlariga mos keladi, bu esa UCAT-SR-110 va UCAT-SR-120 tarkibida rux oksidi zarrachalarining strukturaviy tuzilishini tasdiqlaydi. 443 cm^{-1} da kuchli cho‘qqilar kuzatilgan bo‘lib, bu ZnO kristall panjarasidagi vyurtzit tuzilishidagi Zn–O bog‘lanishlariga mos keladi. Bu cho‘qqilar ZnO ning kristallik holati va tuzilishiga xosdir.

Qayta tiklangan rux oksidlarining (UCAT-SR-110 va UCAT-SR-120) IQ-spektrlari dastlabki import material — SRT-109 namunasi spektriga juda yaqin bo‘lib, asosiy cho‘qqilar bir-biriga mos keladi. Har ikkala qayta sintez qilingan namunalarda cho‘qqilarning joylashuvi bo‘yicha faqat kichik farqlar kuzatiladi. Bu farqlar kislotali ishlov berish jarayonidan keyin yuzaga kelgan kristallik darajasidagi yoki zarracha o‘lchamlaridagi ozgina tafovutlar bilan izohlanadi. Shunday qilib, UCAT-SR-110 va UCAT-SR-120 namunalarining spektral xususiyatlari SRT-109 namunasi bilan yuqori darajada o‘xshash bo‘lib, ular dastlabki import materialning strukturaviy va funksional belgilari qayta tiklanganligini ko‘rsatadi.

Sintez qilingan yangi turdagi adsorbent materialning morfologik va tarkibiy xususiyatlarini chuqur o‘rganish maqsadida yuqori aniqlikdagi Transmission elektron mikroskopiya - TEM tahlillari amalga oshirildi. Bunda Thermo Scientific Talos F200i (S)TEM qurilmasidan foydalanildi.

TEM tahlillari natijasida ayniqsa rux oksidi asosidagi adsorbent namunalarining yuzasi morfologiyasi, ularning g‘ovakliligi hamda sirt faol markazlarining tuzilishi bo‘yicha muhim ma‘lumotlar olindi. Shuningdek, tahlillar mineral qo‘shimchalarning zarralar bo‘yicha taqsimlanishi va ularning adsorbent matritsasiga integratsiyalashgan holatini aniqlash imkonini berdi. Shu asnoda, namunalarning tuzilishi va g‘ovaklik tabiati TEM tasvirlari yordamida, 50, 100 va 500 nm o‘lchamda o‘rganildi (2-rasm).



2-rasm. a) UCAT-SR-110 va b) UCAT-SR-120 namunalarining mikrotasvirlari.

UCAT-SR-120 namunasining 2-rasmdagi TEM tasvirlari ham o‘ziga xos morfologik jihatlarni namoyon etadi. UCAT-SR-110 namunasiga nisbatan, bu

namunaning zarralar tuzilishida ma'lum farqlar kuzatiladi. Tasvirlardan ko'rinadiki, zarralar shakli biroz g'alatiroq bo'lib, sharsimon va ovalsimon shakllar hukmronlik qiladi, ammo ularning chegaralari ba'zi joylarda aniqroq, ba'zi joylarda esa tarqoq ko'rinadi. Bu turli xil kristallanish darajalari yoki mineral qo'shimchalarning ta'siri natijasida bo'lishi mumkin.

Zarralarning o'lchami va ularning agregatlanish darajasi UCAT-SR-110 namunasiga qiyoslaganda sal farq qilishi mumkin, bu esa ularning sintez parametrlaridagi farq bilan izohlanishi kerak. Shunga qaramay, zarralar orasidagi bo'shliqlar va g'ovakli tuzilish saqlanib qolgan, hatto ba'zi hollarda yanada rivojlangan ko'rinadi. Bu xususiyat, shuningdek, mineral qo'shimchalar matritsa ichida qanday integratsiyalashganligi va ularning zarracha chegaralarida taqsimlanishi haqida qimmatli ma'lumot beradi.

Ikkala namuna ham UCAT-SR-110, ham UCAT-SR-120 – TEM tahlillari orqali ularning muhim morfologik afzalliklariga ega ekanligi aniqlandi. Ularning yaxshi shakllangan kristallsimon/yarim kristallsimon tabiati, yuqori dispersligi va rivojlangan g'ovakli tuzilishi, ushbu materiallarni samarali adsorbentlar sifatida ishlatish uchun ideal xususiyatlardir. Kuzatilgan strukturaviy tafovutlar (shakl, kristallanish darajasi) ularning sintez jarayonidagi sharoitlar (masalan, harorat, bosim, qo'shimchalar miqdori) bilan bog'liq bo'lib, bu farqlar ularning kimyoviy barqarorligi va turli xil moddalarni adsorbsiya qilish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu batafsil morfologik tahlil, ushbu adsorbentlarning keyingi adsorbsion xususiyatlarini va mexanizmlarini tushunish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

EDS tahlili natijalari asosida ruh oksidi namunalarning tarkibidagi har bir elementning massa ulishi 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval.


Namunalarning element tarkibi

Namuna	Element tarkibi, %								
	Zn	O	Cu	Al	Si	Ca	Mg	S	Boshqa
Import — SRT-109	59,90	17,79	2.01	0,33	1,74	0,51	3,47	11,83	2,42
UCAT-SR-110	78,56	18,71	1,01	0,22	1,13	0,17	-	0,09	0,11
UCAT-SR-200	82,32	15,68	-	0,24	0,76	0,36	0,03	0,08	0,53

EDS tahlili natijalari ko'rsatishicha, UCAT-SR-110 namunasi tarkibida ruxning massa ulushi 78,56% ni tashkil etib, kislorodniki 18,71% bo'lgan. Bunda qo'shimcha aralashmalar sifatida 1,01% mis, 1,13% kremniy, 0,22% alyuminiy, 0,17% kalsiy va juda kam miqdorda (0,09–0,11%) oltingugurt hamda boshqa elementlar aniqlangan. UCAT-SR-200 namunasida esa rux ulushi 82,32 % gacha oshgan, kislorod esa 15,68% gacha kamaygan. Bu namunada mis umuman uchramagan bo'lsa, kremniy (0,76%), alyuminiy (0,24%), kalsiy (0,36%), magniy (0,03%) va juda oz miqdorda sulfat (0,08%) hamda boshqa elementlar (0,53%) mavjud. Umumiy taqqoslash shuni ko'rsatadiki, UCAT-SR-200 namunasi UCAT-

SR-110 ga nisbatan tozaroq bo'lib, unda asosiy komponent sifatida rux oksidi ustunlik qiladi. Misning yo'qligi va boshqa aralashmalarning kamayishi uni amaliy qo'llanmalar uchun istiqbolliroq qiladi, chunki yuqori tozalik materialning elektr, adsorbsion va katalitik xossalarini yanada barqarorlashtiradi.

Mazkur tadqiqotda turli sharoitlarda tayyorlangan ikki xil ZnO namunasi UCAT-SR-110 va UCAT-SR-120 o'rganildi. XRD tahlili orqali ushbu namunalar tarkibida ZnO ning kristall fazasi, ularning kristallit o'lchamlari hamda kristallik darajasidagi farqlar aniqlash maqsad qilingan. Quyida har bir namunaga tegishli XRD natijalari alohida tahlil qilinadi va so'ngra ular o'zaro taqqoslanadi.




3-rasm. a) UCAT-SR-120 va b) import SRT-109 adsorbent namunalarining rentgenogrammasi.

UCAT-SR-110 namunasi uchun olingan rentgenogrammasida (3-rasm) aniq va keskin cho'qqilar kuzatildi, bu esa namunadagi ZnO kristall tuzilmasining yaxshi rivojlanganligini ko'rsatadi. Asosiy difraksiya cho'qqilari taxminan $2\theta = 31.8^\circ$, 34.4° , 36.3° , 47.6° burchaklarda joylashgan bo'lib, ular mos ravishda ZnO ning geksagonal vyurtzit fazasiga xos (100), (002), (101), (102), (110), (103), (200) va (112) tekisliklariga to'g'ri keladi. Cho'qqilarning yuqori intensivligi va torligi materialning yuqori kristallik darajasini bildiradi. Eng yuqori intensivlikka ega cho'qqi 36.3° atrofida joylashgan bo'lib, u (101) tekisligiga to'g'ri keladi — bu ZnO ning vyurtzit tuzilmasida eng xarakterli refleksiya hisoblanadi. XRD spektrida boshqa fazalar yoki amorf strukturalar belgisi kuzatilmagan, bu esa namunada sof ZnO hosil bo'lganini tasdiqlaydi.

SRT-109 va UCAT-SR-120 namunalarining rentgenogrammalari bir grafikda tahlil qilindi. SRT-109 import katalizatori bo'lib, mazkur tadqiqotda uning chiqindisidan foydalanilib qolgan ikki UCAT-SR-110 va UCAT-SR-120 namunalar tayyorlangan. Rentgenogramma ko'ra, har ikkala namunada ham difraksiya cho'qqilari bir xil 2θ burchaklarda joylashgan, bu ularning strukturasi bir xil, ya'ni geksagonal vyurtzit ZnO ekanini ko'rsatadi. Shunga qaramay, cho'qqilar intensivligi va kengligidagi farqlar namunalar orasida kristallik darajasi va zarracha o'lchamidagi tafovutlarni bildiradi.

SRT-109 namunasida cho'qqilar yuqori intensivlikka va tor shaklga ega bo'lib, bu katta kristallitik o'lchamlari va yaxshi kristallanishni bildiradi. UCAT-SR-120 namunasida esa cho'qqilar nisbatan past intensivlikka va kengroq shaklga ega, bu unda kristallitliklar kichikroq yoki panjara deformatsiyasi hamda nuqsonlar mavjudligini ko'rsatadi.

Uchala namunada ham ZnO ning geksagonal vyurtzit fazasi hosil bo'lgan bo'lib, hech qanday aralashma yoki ikkilamchi faza aniqlanmagan. Biroq, cho'qqilarning intensivligi va aniqligidagi farqlar kristallik darajasidagi o'zgarishlarni yaqqol ko'rsatadi. UCAT-SR-110 namunasi yuqori kristallik va sof fazaga ega ekani bilan ajralib turadi. SRT-109 namunasi ham yuqori kristallik darajasiga ega bo'lsa-da, UCAT-SR-120 namunasi nisbatan past kristallik darajasini namoyon etadi.



4-rasm. Namunalarda N₂ adsorbsiya va desorbsiya izotermalari: a) Import SRT-109; b) UCAT-SR-110; c) UCAT-SR-120

Import SRT-109 (a), UCAT-SR-110 (b) va UCAT-SR-120 (c) namunalari uchun azot adsorbsiya/desorbsiya izotermalari ularning g'ovak tuzilishidagi sezilarli farqlar 4-rasm da keltirilgan. Izotermalarning shakli va ularning nisbiy bosimga bog'liqligi, shuningdek, paydo bo'ladigan gisterezis halqalari, materialning asosan qanday turdagi g'ovaklar (mikro yoki mezo) bilan tavsiflanishiga asosiy dalil hisoblanadi. Izotermalarning boshlang'ich qismidagi keskin ko'tarilish (past P/P₀ da) mikrog'ovaklarning mavjudligiga, o'rta va yuqori bosimlarda kuzatiladigan egilishlar va halqalar esa mezog'ovaklarning mavjudligiga ishora qiladi.

Rux oksidi nanozarrachalarining tekstur xossalari

Tekstur parametri nomi	Import SR-109	UCAT-SR-110	UCAT-SR-120
$^1S, m^2/g$	44	42,15	23,0025
$^2S, m^2/g$	202,08	174,03	91,6162
$\Sigma V, cm^3/g$	0.260	0.159206	0.082116
$V_a, cm^3/g$	0.002	0,000109	-
$V_b, cm^3/g$	0,258	0,159097	0.082116
$R, \text{\AA}$	40	32,5295	25,6585
G'ovaklarning o'rtacha diametri, $\text{\AA}$	16,243	14,419	14,446

UCAT-SR-110, UCAT-SR-120 va Import SRT-109 namunalari o'rtasidagi teksturaviy farqlarni aniqlash va o'rganish uchun 3-jadvalda keltirilgan.

UCAT-SR-110 namunasi UCAT-SR-120 ga nisbatan ancha yuqori solishtirma nisbiy yuzasi bilan tavsiflanadi (BET bo'yicha mos ravishda 42,15 va 23,00 m^2/g ; Langmuir bo'yicha 174,03 va 91,62 m^2/g) hamda umumiy g'ovaklar hajmi bo'yicha ham ustunlikka ega (0,159 va 0,082 sm^3/g).

Import SRT-109 katalizatori esa BET sirt maydoni bo'yicha 44 m^2/g qiymatni namoyon etib, UCAT-SR-110 ga juda yaqin, biroq UCAT-SR-120 dan sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichga ega. Shu bilan birga, Import SRT-109 ning umumiy g'ovaklar hajmi 0,260 sm^3/g bo'lib, bu qiymat har ikkala mahalliy namunadan ancha yuqori ekanini ko'rsatadi.

Mikrog'ovaklar hajmi UCAT-SR-110 (0,000109 sm^3/g) va Import SR-109 (0,002 sm^3/g) namunalari uchun aniqlangan bo'lsa, UCAT-SR-120 da bu ko'rsatkich juda kichik yoki aniqlanmagan. Bu holat UCAT-SR-110 va ayniqsa Import SRT-109 namunalari mikrog'ovakli tuzilma nisbatan yaxshiroq rivojlanganidan dalolat beradi, biroq mikrog'ovaklarning umumiy g'ovaklikdagi ulushi barcha holatlarda kichikligicha qoladi. ZnO asosidagi strukturalarda esa kristall panjaraning zichligi va donachalararo bog'lanishlar mikrog'ovaklarning shakllanishini cheklab, ko'proq mezog'ovak va makrog'ovaklarning rivojlanishiga olib keladi; shu sababli aniqlangan g'ovakliklar ZnO ning morfologiyasi va sintez sharoitlari bilan bevosita bog'liqdir.

Mezog'ovaklar hajmi UCAT-SR-110 (0,159097 sm^3/g) va Import SRT-109 (0,258 sm^3/g) namunalari uchun asosiy ulushni tashkil etib, ularning strukturasida mezog'ovaklarning ustunligini tasdiqlaydi; xususan, Import SR-109 da tashqi (mezo) sirt maydoni 40 m^2/g ni tashkil etadi.

Umuman olganda, Import SRT-109 katalizatorining teksturaviy xossalari etalon sifatida qabul qilinib, undan foydalanishdan keyin hosil bo'lgan chiqindidan kislotali ishlov berish orqali olingan UCAT-SR-110 va UCAT-SR-120 namunalari bilan solishtirma tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, UCAT-SR-110 namunasi solishtirma sirt yuzasi va g'ovak tuzilishining rivojlanganligi bo'yicha toza Import SRT-109 katalizatoriga nisbatan ancha yaqin bo'lib, UCAT-SR-120 namunasi esa ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha nisbatan past qiymatlar bilan tavsiflanadi. Bu holat kislotali ishlov berish jarayonida g'ovak tuzilishining qayta shakllanish darajasi ishlov berish sharoitlariga kuchli bog'liqligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, batafsil o'lchangan tekstura parametrlari shuni ko'rsatadiki, UCAT-SR-110 namunasi UCAT-SR-120 ga qaraganda yuqori solishtirma yuzasi va umumiy g'ovaklar hajmi tufayli potentsial adsorbent sifatida ancha istiqbolli hisoblanadi. G'ovak tuzilishidagi bu farqlar, eng muhimi, ularning

tayyorlanish texnologiyasidagi tafovutlar bilan bog'liq. Shuning uchun, maqsadli adsorbentlar yaratish uchun tayyorlash parametrlarini (harorat, aktivator turi va miqdori, vaqt va boshqalar) diqqat bilan optimallashtirish zarur. Ushbu tadqiqot materialshunoslik va adsorbentlar sohasida yangi, yuqori samarali materiallarni ishlab chiqishga yo'l ko'rsatadi va kelajakdagi ilmiy va amaliy ishlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

“Tabiiy gazlarni oltingugurt birikmalaridan tozlash uchun adsorbentlar ishlab chiqarish texnologiyasi” deb nomlangan to'rtinchi bobda qayta tiklangan ZnO adsorbentlarining merkaptan va H₂S ni adsorbsiyalashdagi samaradorligi tadqiq qilingan.

Olingan natijalarga asoslangan holda tarkibida ZnO mavjud bo'lgan UCAT-SR-120 namunasining demerkaptanlash jarayoni amalga oshirildi.

4 – jadval

UCAT-SR-120 namunasining Sho'rtan neft va gazni qazib chiqarish boshqarmasining SKS-1 olingan gaz tarkibidagi H₂S tozalash natijalari

Gazning nomi	Dastlabki ulushi	Adsorbsiya jarayonidan keying ulushi
Vodorod sulfid (H ₂ S)	0,0021	0,000301
Ishlab chiqarilayotgan gazning fizik-kimyoviy xossalari		
Gazning xossalari	Ko'rsatkichlari	
C ₅ +yuqori molyar ulushi, %	0,491	
C ₅ +yuqori massaviy konsentratsiyasi, g/m ³	16,97	
760 mm Hg va 20 °C haroratdagi zichligi, kg/m ³	0,765	
C ₃ – C ₄ molyar ulushi, %	1,483	
C ₃ – C ₄ massaviy konsentratsiyasi, g/m ³	26,81	

Olib borilgan natijalardan ko'rishimiz mumkinki UCAT-SR-120 adsorbenti yordamida adsorbsion jarayoni olib borilgandan keyin gaz tarkibida vodorod sulfid – 0,000301 % gacha tozalaganligini ko'rishimiz mumkin.

Quyidagi 5-jadvalda qazib chiqarilayotgan gazning tarkibidagi moddalarning molyar ulushi keltirilgan. Bundan ko'rishimiz mumkinki vodorod sulfid miqdori 0,0012 ulushni tashkil etmoqda, vodorod sulfid tozalash uchun esa tajribalar natijasida sintez qilib olingan tarkibida ZnO mavjud bo'lgan UCAT-SR-110 namunasining demerkaptanlashdan oldingi natijalari.

5 – jadval

Sho'rtan neft va gazni qazib chiqarish boshqarmasining SKS-1 olingan tabiiy gaz adsorbsion tozalashdan keyingi fizik-kimyoviy xossalari

Gazning xossalari	Ko'rsatkichlar
Gaz komponentlarining molyar ulushi, %	CH ₄
	94,0338
	C ₂ H ₆
	3,565
	C ₃ H ₈
	0,832
	izo-C ₄ H ₁₀
	0,224
	n- C ₄ H ₁₀
	0,291
	izo-C ₅ H ₁₂
	0,103
	n-C ₅ H ₁₂
	0,088
	C ₆ H ₁₄ +yuqori
	0,318
	N ₂
	0,542
	CO ₂
	0,002
	H ₂ S
	0,0012
	Jami:
	100

C ₅ +yuqori molyar ulushi, %	0,509
C ₅ +yuqori massaviy konsentratsiyasi, g/m ³	17,08
760 mm Hg va 20 °C haroratdagi zichligi, kg/m ³	0,742
C ₃ – C ₄ molyar ulushi, %	1,347
C ₃ – C ₄ massaviy konsentratsiyasi, g/m ³	27,658


UCAT-SR-110 adsorbenti yordamida adsorbsion jarayoni olib borilgandan keyin gaz takribida metan – 94,0338%, etan – 3,565%, propan – 0,832, butanlar – 0,415%, suyuq uglevodorodlar 0,509%, azot – 0,542%, vodorod sulfid – 0 %, uglerod dioksidi – 0,002% tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha ushbu toza gaz sanoatning adsorbsiya qurilmalaridan chiquvchi gazlarga qo'yilgan talablarga to'la javob beradi.

Shunday qilib, UCAT-SR-120 namunasi yuqori adsorbsion faollikni namoyon etgan bo'lib, bu uning sirt morfologiyasi, mezog'ovaklik darajasi va faol Zn²⁺ markazlarning ko'pligi bilan izohlanadi. UCAT-SR-110 namunasi esa nisbatan zichroq tuzilishga ega bo'lib, diffuziya cheklanishi tufayli adsorbsion jarayon sustroq kechgan.

Olingan ma'lumotlar asosida shuni xulosa qilish mumkin: merkaptanlarni adsorbsiyalash samaradorligi ZnO asosidagi adsorbentlarning strukturaviy tartiblanish darajasi, sirt maydoni va faol markazlarning taqsimotiga bevosita bog'liq. Shunday qilib, UCAT-SR-120 namunasi tabiiy gazlarni demerkaptanlash jarayonida yuqori samarali, barqaror va regeneratsiyaga yaroqli adsorbent sifatida tavsiya etiladi.

Tadqiqotlar davomida qayta tiklangan ZnO adsorbentlarining fizik-kimyoviy va adsorbsion xossalari o'rganilib, ularning tabiiy gazlarni oltingugurtli birikmalardan tozalash jarayonlarida qo'llash imkoniyati ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shu asosda, laboratoriya miqyosida sinovdan o'tkazilgan jarayonlarni sanoat sharoitiga moslashtirish va texnologik jihatdan tartibga solish zarurati yuzaga keladi.

Texnologik sxemani ishlab chiqishda xomashyo manbalarining mavjudligi, jarayon bosqichlarining ketma-ketligi, energiya va reaktivlar sarfi, chiqindilarni kamaytirish hamda ekologik xavfsizlik talablari inobatga olindi.



5-rasm. Texnologik sxema: 1-reaktor; 2,3-filtr; 3,5,6,9,10,11-sig'imlar; 4-nasos; 7-reaktor; 12-qizdiruvchi barabanli pech; 13-aralashma; 14-ekstruder; 15-qurutish shkafi

Yuqoridagi sxemaga muvofiq, Xorijiy Unicat SRT-109 markali ishlatilgan katalizatori reaktorga kiradi (1-qurilma), bu yerda 30% nitrat kislota beriladi. Parchalanish mahsulotlari filtrga beriladi (2-qurilma). Qattiq fazali xom ashyo chiqariladi va suyuq faza rux nitrat eritmalari cho'kindi reaktoriga kiradi (7-qurilma), bu yerda ammoniy karbonat eritmasi beriladi, keyin ammoniylashgan suspenziya filtrga kiradi (8-qurilma), suyuq va qattiq fazaga bo'linadi. Qattiq faza suv bilan yuviladi va qizdiruvchi barabanli pechiga beriladi (12-qurilma). So'ngra qattiq faza aralashtirgichga beriladi, (13-qurilma), hosil bo'lgan massa ekstruderga kiradi (14-qurilma) va keyin quritish shkafiga (15-qurilma). Suyuq faza va yuvish suvlari birgalikda suyuq azotli o'g'itlarni ishlab chiqarish uchun xom ashyo bo'lib xizmat qiladi.

XULOSALAR

1. Foydalanilgan ZnO asosidagi katalizatorlarni kislota bilan ishlov berish orqali qayta tiklash jarayonining optimal texnologik sharoitlari aniqlanib, 94% gacha tiklanish darajasiga erishildi. Optimal natijalar 94 °C, yuvish davomiyligi 180 minutda kuzatildi. Bu sharoitda ZnO kristallarining qayta hosil bo'lishi to'liq amalga oshganini XRD difraktogrammadagi $2\theta = 31,8^\circ, 34,4^\circ, 36,3^\circ$ intensiv cho'qqilar tasdiqladi.

2. Qayta tiklangan ZnO namunalarining infraqizil spektrlari 430–470 cm^{-1} oralig'ida Zn–O bog'lanish tebranishlari qayta paydo bo'lganini, 1620 cm^{-1} atrofida esa adsorblangan suv molekulalarining deformatsion tebranishi mavjudligini ko'rsatdi. Bu natijalar ZnO kristall panjarasining qayta tiklanishi va yuzasida gidroksil guruhlarining hosil bo'lishi bilan izohlanadi.

3. Transmission elektron mikroskopiya tahlillari asosida qayta tiklangan ZnO zarrachalari nanoo'lchamli 22–34 nm diapazonda ekanligi aniqlandi. Zarrachalarning shakli asosan sferik bo'lib, bu ularning yuqori sirt faolligini va adsorbsiya markazlarining ko'pligini ta'minlaydi.

4. BET tahlili asosida ZnO adsorbentlarining o'rtacha nisbiy yuzasi 23–42,15 m^2/g , umumiy g'ovak hajmi 0,18–0,26 cm^3/g , o'rtacha g'ovak diametri esa 4,8–7,2 nm oralig'ida ekanligi aniqlanib, mikro va mezog'ovaklar kombinatsiyasi adsorbsiya samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynashi isbotlandi.

5. Merkaptanlar va vodorod sulfidini adsorbsiya qilish jarayonlari o'rganilib, reaksiya tezligi harorat ortishi bilan logarifmik qonuniyatda oshishi aniqlandi. 0,15% merkaptan konsentratsiyasida, 80 K harorat va 1 atm bosimda maksimal adsorbsion sig'im 1,46 mmol/g ga teng bo'ldi. Adsorbsion faollikning ortishi sirt faol markazlarning to'yinganlik darajasi va gidrofil fragmentlarning o'zaro ta'siri bilan bog'liq ekanini ko'rsatildi.

6. Mahalliy chiqindilardan olingan ZnO asosidagi katalizatorlarni tabiiy gazni demerkaptanlash jarayonida qo'llash orqali gaz tarkibidagi umumiy oltingugurt miqdori 0,42% dan 0,05% gacha kamaytirildi. Bu esa amaldagi import katalizatorlarga nisbatan yaqin samaradorlikni namoyon etdi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/2025.27.12.K/T.19.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ИНСТИТУТЕ
ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ**

ТАШКЕНТСКИЙ ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ХОЛИКОВ АБДУМАЛИК САИДУЛЛАЕВИЧ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ АДСОРБЕНТОВ НА
ОСНОВЕ ВТОРИЧНОГО СЫРЬЯ ДЛЯ ДЕСУЛЬФУРИЗАЦИИ
ПРИРОДНОГО ГАЗА**

02.00.11 – Коллоидная и мембранная химия

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент -2026

Тема диссертации доктора (PhD) философии по техническим наукам зарегистрирована под в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2026.3.PhD/T3574.

Диссертация выполнена в Ташкентский химико-технологический институт.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.ionx.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.zionet.uz).

Научный руководитель:

Эшметов Расулбек Жумязович
доктор технических наук, старший научный сотрудник

Официальные оппоненты:

Бухоров Шухрат Буриевич
доктор технических наук, профессор

Усманов Расул Муратбаевич
доктор философии по техническим наукам, доцент

Ведущая организация :

Кокандский государственный университет

Защита состоится «25» августа 2026 г. в «10:00» часов на заседании разового Научного совета DSc.05/2025.27.12.K/T.19.01 при Институте общей и неорганической химии по адресу: 100170, г. Ташкент, ул. Мирзо Улугбека, 77-а. Тел.: (+99871) 262-56-60; факс: (+99871) 262-79-90; e-mail: ionxanrux@mail.ru.

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Института общей и неорганической химии за № 2 которой можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре (100170, г. Ташкент, ул. Мирзо Улугбека, 77-а). Тел.: (+99871) 262-56-60; факс: (+99871) 262-79-90.

Автореферат диссертации разослан «11» август 2026 года.
(Реестр за № 12 от «11» август 2026 года).



Ибрагимов А.Б.

Председатель разового научного совета
по присуждению
ученой степени, д.х.н., проф.

Адизов Б.З.

Ученый секретарь разового научного совета
по присуждению
ученой степени, д.т.н., проф.

Махкамов Р.Р.

Председатель научного семинара при разовом научном совете
по присуждению ученой степени, д.х.н., с.н.с.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора (PhD) философии)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире в настоящее время обеспечение устойчивого развития промышленности по переработке природного газа, особенно решение проблемы эффективной очистки сырого газа, добываемого на крупных газовых месторождениях, эксплуатируемых на протяжении многих лет, от меркаптанов и сернистых соединений, является одной из актуальных научно-практических задач. Высокое содержание сернистых примесей в составе газа не только снижает его качество для потребителей, но и характеризуется повышением риска коррозии в процессе транспортировки, усложнением стадий переработки и нанесением ущерба окружающей среде. В таких условиях особое значение приобретает использование высокоэффективных катализаторов, обеспечивающих необходимую эффективность очистки природного газа.

В мире ведутся широкомасштабные научные исследования по разработке экономически эффективных адсорбентов, получаемых из биоосновного или местного сырья с учетом экологических и экономических требований, пригодных для применения в различных процессах. В данном направлении важное значение имеет внедрение инновационных подходов к созданию технологий производства адсорбентов, которые не только не наносят вред окружающей среде, но и снижают затраты энергии и ресурсов, а также повышение качества продукции и рентабельности за счет обеспечения их высокой активности, длительного срока службы и регенерируемости.

